

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14498580>

## YURAK POROGI: SABABLARI, BELGILARI VA DAVOLASH USULLARI

**Ergashev Asqar Jong‘oboyevich**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti “Fizika, biofizika va tibbiy fizika” kafedrası  
(PhD) assistenti [askarergashev@rabler.ru](mailto:askarergashev@rabler.ru)

**Keldiyarova Diyora Siroj qizi**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash fakulteti 109 guruh talabasi.  
[Diyorakeldiyarova58@gmail.com](mailto:Diyorakeldiyarova58@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurak porogi – bu yurak mushaklariga qon oqimi to‘satdan to‘xtashi natijasida yuzaga keladigan jiddiy holatlar bo‘lib jarayonning mohiyati, yurak mushaklariga qon yetkazib beruvchi koronar arteriyalar torayishi yoki tiqilishi natijasida miokard infarkti rivojlanadidan iboratdir.*

***Kalit so‘zlar:** Yurak porogi, Koronar arteriya, Arteriya va vena, Modifikatsiya, Elektrokardiogramma, Koronar angioplastika. Asosiy sababi: Koronar arteriyaning ateroskleroz (xolesterin blyashkalari) tufayli torayish yoki tromb hosil bo‘lishi.*

Yurakning anatomik tuzilishidagi turg‘un nuqson, kamchilik va o‘zgarishlar; normal qon oqimiga xalaqit beradi. Tug‘ma va orttirilgan Yurak poroklari farq qilinadi. Tug‘ma Yurak poroklari homila yuragi va yurak yirik tomirlarining embrional rivojlanish davrida noto‘g‘ri shakllanishi natijasida ro‘y beradi. Homiladorlikning ilk davrida ona organizmining zaharlanishilar asosan, ba‘zi kasalliklar bilan og‘rishi mumkun chunki ionlovchi nurlarning biologik ta‘sirilari asosan irsiy kasalliklar va hokazo sabab bo‘ladilar. Go‘daklik davrida (1 yoshgacha) yuraktomir sistemasining to‘la rivojlanmay qolishi (mas, ochiq arterial yo‘llar yoki oval teshikning bitmay qolishi) Yurak poroklariga kiradi. Tug‘ma Yurak poroklari ning ko‘p uchraydigan turlari: katta va kichik qon aylanish doiralari o‘rtasida har xil kombinatsiyadagi anormal yo‘l shuningdek, yurakning yirik tomirlari (mas, o‘pka arteriyasi va aorta)da toraygan yoki bitib qolgan joylar bo‘lishi yoki shu tomirlarning noto‘g‘ri joylashuvlari aralash poroklari yurak bo‘lmachalar soni va tuzilishiga oid nuqsonlardir.

Arteriya va vena qonining qay daraja aralashib turishiga qarab ba‘zi tug‘ma Yurak poroklari sianoz bilan (ko‘k xildagi poroklar), ba‘zilari sianozsiz (oq xildagi poroklar) bo‘ladi. Bu qonning katta va kichik qon aylanish doiralari tutashtiruvchi

noo‘rin teshiklar orqali qaysi tomonga oqib o‘tishiga (shunt yo‘nalishiga), o‘pka arteriyasidagi bosimning ko‘tarilishi darajasi va yurak muskullari holatiga bog‘liqdir. Bolaning jismonan tuzuk rivojlanmasligi, rangparlik yoki ko‘karib ketish, nafas siqishi, yurak hajmi va holatining o‘zgarishi, yurakda shovqin eshitilishi va boshqalar tug‘ma Yurak poroklariga xos belgilardir.

### **Sabablari va xavf omillari**

1. Modifikatsiyalanadigan omillar:

1 Chekish.

2 Noto‘g‘ri ovqatlanish (yuqori xolesterin).

3 Semizlik va kam harakatlilik. 4 Gipertoniya (qon bosimining balandligi)

**Yurak porogining belgilari;** Yurak porogi belgilari odatda to‘satdan yuzaga keladi va darhol tibbiy yordam talab qiladi:

- Asosiy simptomlar:
- Ko‘krak sohasida qattiq og‘riq, bosim yoki siqilish hissi.
- Og‘riqning chap qo‘l, elka yoki jag‘ga tarqalishi.
- Nafas qisishi va o‘pka yetishmovchiligi.
- Qo‘shimcha belgilari:
- Terlash, bosh aylanishi.
- Ko‘ngil aynishi va qusish.
- Xiralashgan ong yoki zaiflik. Kasallik belgilari

Diagnostika: • Elektrokardiogramma (EKG): Yurakning elektr faolligini o‘lchash orqali miokard infarkti aniqlanadi.

- Qon tahlillari: Yurak fermentlari (troponin va kreatinkinaza) darajasini aniqlash.
- Angiografiya: Koronar arteriyalar holatini aniqlash uchun kontrast modda yordamida o‘tkaziladigan rentgen tekshiruvi.

Davolash: 1. Favqulodda yordam:

- Qon tomirlarni kengaytiruvchi dori vositalari (nitroglitserin).
- Tromblarni erituvchi preparatlar (trombolitiklar).

2. Jarrohlik usullari: Koronar angioplastika: Arteriyani kengaytirish va stent qo‘yish.

- Koronar bypass: Bloklangan arteriyani chetlab o‘tish uchun yangi qon yo‘lini yaratish.

Profilaktika: Yurak porogining oldini olish. Yurak porogining oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- Sog‘lom turmush tarzi:
- Muntazam jismoniy faollik (haftasiga kamida 150 daqiqa o‘rtacha harakat).
- Noto‘g‘ri ovqatlanishdan voz kechish, xolesterin va tuz iste‘molini kamaytirish.
- Yomon odatlardan voz kechish:
- Chekishni tashlash.

- Me'yordan ortiq spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik.
- Tibbiy nazorat: Qon bosimini va xolesterin darajasini muntazam nazorat qilish.
- Yoshi katta odamlarga profilaktik tekshiruvlar tavsiya etiladi.

**Xulosa qilib aytganda:** Yurak porogi – hayot uchun xavfli bo'lgan jiddiy sog'liq muammosi. Uning oldini olish uchun sog'lom turmush tarzi, muntazam tibbiy nazorat va xavf omillarini boshqarish muhimdir. Har bir inson yurak sog'lig'ini asrash bo'yicha mas'uliyatli bo'lishi va sog'lom odatlarni hayotga tatbiq etishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Trokel, S. L. (1993). Excimer Laser Surgery for Corneal Disorders. *The American Journal of Ophthalmology*, 115(3), 335-343.
2. Niemz, M. H. (2007). *Laser-Tissue Interactions: Fundamentals and Applications*. Springer.
3. Ergashev A.J. Олий таълим тизимида “Ионлаштирувчи нурланишлар” мавзусини модуль тизимида ўқитиш усуллари ЎзМУ хабарлари вестник нууз аста нууз мирзо улуғбек номидаги ўзбекистон миллий университети илмий журнали тошкент – 2022 yil 202-204 betlar.
4. Ergashev A.J. Oliy ta'limda yadro texnologiyalari fanini o'qitishda didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi *Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi-2022-yil\_7-son* 353-359 b.